



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

ERKINLIK VA MAS'ULIYAT: ZAMONAVIY INSON HAYOTIDAGI FALSAFIY MUAMMOLAR

Karimova Gulchehra Abdukarimovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar"

kafedra dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: gul.karimova2023@gmail.com

tel.: 977566411

ORCID: 0009-0001-6847-0805

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabatning falsafiy mazmunini ochib berish hamda raqamli va texnologik muhitda ushbu munosabatning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda falsafiy tahlil va sintez, qiyosiy-tarixiy, germanevtik, tizimli va aksiologik yondashuvlar, shuningdek, konseptual modellashirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida erkinlikning zamonaviy talqinlari tizimlashtirildi, erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya hodisasi tavsiflandi hamda uning to'rt asosiy ko'rinishi — tanlov mo'lligi paradoksi, algoritmik vositachilik, mas'uliyat bo'shlig'i va javobgarlikning tashqi omillarga ko'chirilishi — ajratib ko'rsatildi. Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasini ifodalovchi strukturaviy model hamda mas'uliyat darajalarining to'rt bosqichli tasnifi ishlab chiqildi. Muallif erkinlikni cheklash emas, balki uni mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish zamonaviy jamiyatning asosiy falsafiy vazifasi ekanini asoslaydi. Xulosa qilib aytganda, erkinlik va mas'uliyat bir-birini istisno qiluvchi emas, balki bir-birini taqozo etuvchi kategoriyalar bo'lib, ularning muvozanati shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining zaruriy shartidir.

Kalit so'zlar: erkinlik, mas'uliyat, tanlov, avtonomiya, determinizm, axloqiy subyekt, raqamli muhit, mas'uliyat bo'shlig'i, qadriyat, shaxs, javobgarlik, ekzistensiya.

СВОБОДА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ЖИЗНИ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: Целью исследования является раскрытие философского содержания соотношения свободы и ответственности в жизни современного человека, а также выявление тенденций изменения этого соотношения в цифровой и технологической среде. В исследовании применены методы философского анализа и синтеза, сравнительно-исторический, герменевтический, системный и аксиологический подходы, а также концептуальное моделирование. В результате исследования систематизированы современные трактовки свободы, описан феномен асимметрии между свободой и ответственностью и выделены четыре его основные формы: парадокс избыточности выбора, алгоритмическое посредничество, разрыв ответственности и перенос ответственности на внешние обстоятельства. Разработаны

структурная модель диалектической связи свободы и ответственности, а также четырёхуровневая классификация уровней ответственности. Автор обосновывает, что главной философской задачей современного общества является не ограничение свободы, а её согласование с ответственностью. В заключение показано, что свобода и ответственность не исключают, а взаимно предполагают друг друга, и их равновесие выступает необходимым условием развития личности и устойчивости общества.

Ключевые слова: свобода, ответственность, выбор, автономия, детерминизм, моральный субъект, цифровая среда, разрыв ответственности, ценность, личность, подотчётность, экзистенция.

FREEDOM AND RESPONSIBILITY: PHILOSOPHICAL ISSUES IN THE LIFE OF MODERN MAN

Abstract: The aim of the study is to reveal the philosophical content of the relationship between freedom and responsibility in the life of contemporary man and to identify the tendencies of change in this relationship within the digital and technological environment. The research applies the methods of philosophical analysis and synthesis, the comparative-historical, hermeneutic, systemic and axiological approaches, as well as conceptual modelling. As a result of the study, contemporary interpretations of freedom are systematised, the phenomenon of asymmetry between freedom and responsibility is described, and its four principal forms are distinguished: the paradox of excessive choice, algorithmic mediation, the responsibility gap, and the displacement of accountability onto external circumstances. A structural model of the dialectical connection between freedom and responsibility, together with a four-level classification of responsibility, has been developed. The author substantiates that the principal philosophical task of contemporary society consists not in restricting freedom but in harmonising it with responsibility. In conclusion, freedom and responsibility do not exclude but mutually presuppose each other, and their balance constitutes a necessary condition for personal development and social stability.

Keywords: freedom, responsibility, choice, autonomy, determinism, moral subject, digital environment, responsibility gap, value, personality, accountability, existence.

KIRISH

Erkinlik va mas'uliyat falsafiy tafakkur tarixining eng qadimiy hamda ayni paytda eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Antik davrdan boshlab mutafakkirlar insonning o'z harakatlari uchun haqiqiy sababchi bo'la olish-olmasligi, uning tanlovi ichki irodadan yoki tashqi zaruriyatdan kelib chiqishi haqidagi savol ustida bahs yuritganlar. Ushbu savol sof nazariy ahamiyatga ega emas, chunki undan beriladigan javob huquq, axloq, ta'lim va siyosat sohasidagi amaliy qarorlarning asosini tashkil

qiladi. Agar inson o'z qarorining muallifi bo'lmasa, uni javobgarlikka tortish asossiz bo'lib qoladi; agar u to'liq erkin bo'lsa, unda ijtimoiy sharoit va tarbiyaning roli inkor etilgan bo'ladi.

XXI asr ushbu muammoga tubdan yangi mazmun kiritdi. Bir tomondan, zamonaviy inson tarixda misli ko'rilmagan darajada keng tanlov maydoniga ega bo'ldi: kasb, yashash joyi, turmush tarzi, axborot manbai, ijtimoiy aloqa shakli va hatto shaxsiy o'zlikni ifodalash usuli uning ixtiyoriga havola etildi. Boshqa tomondan, aynan shu davrda insonning tanlovi hech qachon bo'lmagan darajada tashqi tizimlar tomonidan shakllantirila boshladi. Tavsia beruvchi algoritmlar, raqamli platformalar, axborot oqimini boshqarish mexanizmlari insonning e'tiborini yo'naltiradi va unga qanday variantlar ko'rinishini oldindan belgilaydi.

Bunday vaziyatda erkinlikning shakli saqlanib qolgani holda uning mazmuni zaiflashuvi xavfi yuzaga keladi. Inson o'zini erkin his qiladi, chunki u hech kim tomonidan majburlanmayapti; biroq uning oldiga qo'yilgan alternativalar to'plamini boshqa subyekt tuzgan bo'ladi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu majburlashning yangi, yashirin shakli bo'lib, u an'anaviy zo'rlik tushunchasi doirasida tavsiflanmaydi.

Muammoning ikkinchi jihati mas'uliyat bilan bog'liq. Zamonaviy jamiyatda erkinlikka bo'lgan talab kuchayib borayotgan bir paytda, javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlik shunga mutanosib ravishda ortmayapti. Aksincha, qarorning oqibatlarini ko'pincha tashqi omillarga — institutlarga, texnologiyaga, iqtisodiy vaziyatga yoki "holatlar shunday bo'lgani"ga yuklanadi. Ushbu hodisani erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya deb atash mumkin.

Uchinchi jihat texnologik xarakterga ega. Avtonom texnik tizimlarning keng tarqalishi javobgarlikning aniq bir subyektga biriktirilishini qiyinlashtirmoqda. Tizimning qarori ishlab chiquvchi, ma'lumot yetkazib beruvchi, buyurtmachi va foydalanuvchining birgalikdagi faoliyati natijasi bo'lgani sababli, mas'uliyat shu qadar

taqsimlanadiki, u amalda hech kimga tegishli bo'lmay qolishi mumkin. Falsafiy adabiyotda bu holat mas'uliyat bo'shlig'i nomi bilan tahlil qilinadi.

Mavjud tadqiqotlarda erkinlik va mas'uliyat muammolari, qoida tariqasida, alohida-alohida o'rganiladi. Erkin iroda masalasi ko'proq metafizika va neyrofalsafa doirasida, mas'uliyat masalasi esa huquq falsafasi va axloqshunoslik doirasida tahlil qilinadi. Ularning zamonaviy raqamli muhitdagi o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ushbu bog'liqlikning shaxs kamoloti va ta'lim jarayoni uchun ahamiyati yetarlicha yoritilmagan. Milliy-madaniy kontekstda mas'uliyat tarbiyasining falsafiy asoslari ham alohida tadqiqotni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi — zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabatning falsafiy mazmunini ochib berish hamda ushbu munosabatni uyg'unlashtirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. erkinlik tushunchasining zamonaviy falsafiy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish;
2. mas'uliyat kategoriyasining mazmuni va tuzilishini aniqlash;
3. erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriyaning asosiy ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish;
4. raqamli muhitning inson avtonomiyasiga ta'sirini falsafiy jihatdan baholash;
5. erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasini ifodalovchi strukturaviy model ishlab chiqish;
6. mas'uliyat darajalarini tasniflash va ularning o'zaro bog'liqligini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Erkinlik muammosining zamonaviy talqinlari. So'nggi yillarda erkin iroda muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ikki qarama-qarshi yo'nalish yaqqol ajralib turadi. R. Sapolski qat'iy determinizm pozitsiyasini himoya qilib, inson xulq-atvori genetik, neyrobiologik, gormonal va ijtimoiy omillarning uzluksiz zanjiri bilan belgilanishini, shu sababli an'anaviy ma'nodagi erkin iroda mavjud emasligini asoslaydi [1]. Uning fikricha,

har qanday qaror ortida uni yuzaga keltirgan sabablar turadi va bu sabablarning hech biri insonning o'zi tomonidan tanlanmagan.

Qarama-qarshi qarashni K. Mitchell ilgari suradi. U evolyutsion biologiya ma'lumotlariga tayanib, tirik organizmning o'zi kauzal agentlik xususiyatiga ega ekanini, ya'ni u tashqi ta'sirlarga mexanik tarzda emas, balki o'z ichki maqsad va holatidan kelib chiqqan holda javob berishini ko'rsatadi [2]. Ushbu yondashuvda erkinlik fizik qonunlarni buzish sifatida emas, balki murakkab tizimning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

D. Denet va G. Karuzo o'rtasidagi munozara masalaning axloqiy-huquqiy jihatini ochib beradi [4]. Kompatibilistik pozitsiyani himoya qiluvchi tomon determinizm mas'uliyatni inkor qilmasligini, chunki mas'uliyat metafizik ma'nodagi mutlaq erkinlikka emas, balki insonning aql-idrokka bo'ysunish va o'z xulqini tuzatish qobiliyatiga asoslanishini ta'kidlaydi. Skeptik pozitsiya tarafdori esa aynan shu asosda jazoning retributiv shakli oqlanmasligini ilgari suradi.

G. Karuzo alohida tadqiqotida retributivizm tanqidini rivojlantirib, jazoning asosiy vazifasi qasos olish emas, balki zararni oldini olish va shaxsni ijtimoiy hayotga qaytarish bo'lishi kerakligini asoslaydi [3]. Ushbu yondashuv mas'uliyat tushunchasini jazo bilan tenglashtirishdan voz kechishga chorlaydi.

Mas'uliyat, adolat va ijtimoiy kontekst. M. Sandel meritokratiya g'oyasining tanqidiy tahlilida shaxsiy muvaffaqiyat faqat individual sa'y-harakat natijasi emasligini ko'rsatadi [8]. Uning fikricha, muvaffaqiyatni butunlay shaxsning xizmati deb baholash, mag'lubiyatni esa uning shaxsiy aybi deb hisoblash jamiyatda mas'uliyat tushunchasini buzadi va ijtimoiy birdamlikni zaiflashtiradi. Bu qarash mas'uliyatni sof individual kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan hodisa sifatida ko'rish imkonini beradi.

H. Rosa zamonaviy sivilizatsiyaning dunyoni to'liq nazorat qilishga intilishini tahlil qilib, ushbu intilish insonni voqelik bilan haqiqiy aloqadan mahrum qilishini

ta'kidlaydi [9]. Uning konsepsiyasida erkinlik nazorat ko'lamini kengaytirish bilan emas, balki dunyo bilan o'zaro javob berish munosabatiga kirishish bilan bog'lanadi. Bu yondashuv erkinlikni imkoniyatlar sonining ortishi deb tushunadigan qarashga muqobil bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli muhit va avtonomiya. B.-Ch. Han axborot jamiyatida qaror qabul qilish jarayonining o'zgarishini tahlil qilib, raqamli muhitda majburlash o'rnini nozik boshqaruv egallashini ko'rsatadi [7]. Inson tashqaridan cheklanmaydi, biroq uning e'tibori va istaklari shakllantiriladi.

J. Sasskind texnologik kuchni demokratik nazorat ostiga olish zarurligini asoslaydi va raqamli platformalarning qarorlari fuqarolar hayotiga davlat qarorlari darajasida ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydi [10]. Y. N. Harari axborot tarmoqlarining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilib, axborotni boshqarish qobiliyati doimo hokimiyat manbai bo'lib kelganini va sun'iy intellekt davrida bu bog'liqlik yangi bosqichga chiqqanini ko'rsatadi [11].

S. Vallor sun'iy intellekt tizimlarini insoniyatning "ko'zgusi" sifatida talqin qiladi: ular yangi qadriyat yaratmaydi, balki mavjud ijtimoiy naqshlarni aks ettiradi va kuchaytiradi [5]. Shundan kelib chiqib, texnologiyaning axloqiy sifati uchun javobgarlik insonda qolishi ta'kidlanadi. M. Kekelberg sun'iy intellekt etikasiga bag'ishlangan tadqiqotida avtonom tizimlar faoliyatida javobgarlikni biriktirish muammosini ko'rib chiqadi va mas'uliyatni taqsimlangan tarzda, ammo aniq belgilangan holda tashkil etish zarurligini asoslaydi [6].

Sharq falsafiy an'anasida ham ixtiyor va mas'uliyat birligi g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Abu Nasr Forobiy komil inson va odil jamiyat haqidagi ta'limotida aql, fazilat va ijtimoiy burchning uzviyligini asoslagan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida insonning o'z xatti-harakati uchun javobgarligi axloqiy kamolotning zaruriy sharti sifatida talqin qilinadi. Ushbu meros zamonaviy mas'uliyat konsepsiyalari uchun milliy-madaniy zamin yaratadi.

Falsafiy antropologiya, aksiologiya va ijtimoiy falsafa tamoyillari tashkil etadi.

Ishda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. falsafiy tahlil va sintez — erkinlik va mas'uliyat kategoriyalarining mazmunini ochish uchun;
2. qiyosiy-tarixiy usul — turli falsafiy yondashuvlarni solishtirish uchun;
3. germeneytik usul — manbalardagi g'oyalarni zamonaviy kontekstda talqin qilish uchun;
4. tizimli yondashuv — erkinlik, tanlov va mas'uliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish uchun;
5. aksiologik yondashuv — muammoni qadriyatlar tizimi nuqtayi nazaridan baholash uchun;
6. konseptual modellashtirish — strukturaviy model va tasniflarni ishlab chiqish uchun.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. *Erkinlikning zamonaviy falsafiy talqinlari.* Adabiyotlar tahlili erkinlik tushunchasining bugungi kunda kamida to'rt xil asosiy talqinga ega ekanini ko'rsatdi. Ularning har biri mas'uliyat masalasiga o'ziga xos javob beradi. Taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Erkinlikning zamonaviy falsafiy talqinlari va ularning mas'uliyatga munosabati

Yondashuv	Asosiy tezis	Mas'uliyatga munosabati	Zaif tomoni
Qat'iy determinizm	Har bir qaror oldingi sabablar zanjiri bilan belgilangan	Axloqiy ayb asossiz; jazo faqat profilaktik ma'noga ega	Shaxsning o'zini o'zi tuzatish salohiyatini e'tibordan chetda qoldiradi

Libertarizm	Inson sabablar zanjiridan tashqarida qaror qabul qila oladi	Mas'uliyat to'liq shaxsga yuklanadi	Ijtimoiy va biologik shart-sharoitlarni yetarlicha hisobga olmaydi
Kompatibilizm	Erkinlik determinizmga zid emas; u aql-idrokka bo'ysunish qobiliyatidir	Mas'uliyat saqlanadi, ammo qayta tarbiya asosiy maqsad bo'ladi	"Erkinlik" atamasining mazmuni cheklanadi
Relatsion-ijtimoiy	Erkinlik munosabatlar va imkoniyatlar tizimida shakllanadi	Mas'uliyat shaxs va institutlar o'rtasida taqsimlanadi	Shaxsiy javobgarlik chegarasi noaniq bo'lib qolishi mumkin

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan yondashuvlarning hech biri o'z-o'zicha to'liq emas. Qat'iy determinizm mas'uliyat asosini yemirsa, libertarizm insonni ijtimoiy kontekstdan ajratib qo'yadi. Amaliy jihatdan eng samarali natija kompatibilistik va relatsion yondashuvlarni birlashtirish orqali erishiladi: inson o'z qarorining muallifi sifatida tan olinadi, ammo uning tanlovi shakllanadigan ijtimoiy sharoit ham tahlil doirasiga kiritiladi.

2. *Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasi.* Erkinlik va mas'uliyatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish metodologik jihatdan asossiz ekani aniqlandi. Ushbu ikki kategoriya bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, ularni bog'lovchi bo'g'in tanlov aktidir. Erkinlik tanlov imkoniyatini yaratadi, tanlov esa muqarrar ravishda oqibatni keltirib chiqaradi va shu tariqa mas'uliyatni tug'diradi. Ushbu bog'liqlikning strukturaviy modeli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Erkinlik va mas'uliyatning dialektik aloqasi strukturaviy holati

Rasmda tanlov akti ikki tomondan shartlangan. Yuqoridan uni ong va bilim darajasi belgilaydi: inson vaziyatni qanchalik to'g'ri anglasa va oqibatlarni qanchalik aniq bashorat qila olsa, uning tanlovi shunchalik erkin bo'ladi. Quyidan tanlovni qadriyatlar tizimi — axloqiy me'yorlar, madaniy an'analar va huquqiy qoidalar — yo'naltiradi. Aynan shu ikki omil erkinlikni o'zboshimchalikdan, mas'uliyatni esa tashqi majburlashdan ajratib turadi.

Modeldan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, bilim darajasining pasayishi erkinlikni ham, mas'uliyatni ham bir vaqtda zaiflashtiradi. Oqibatini tasavvur qilmaydigan inson aslida tanlamaydi, balki tasodifiy harakat qiladi. Shu sababli ta'lim va ma'rifat erkinlikning cheklovchisi emas, balki uning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

3. *Erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya.* Natijalaridan biri zamonaviy jamiyatda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi — assimetriya hodisasining aniqlanishi bo'ldi. Uning to'rt asosiy ko'rinishi hamda ikki qo'shimcha shakli 2-jadvalda tavsiflangan.

2-jadval

Zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat assimetriyasining ko'rinishlari

Ko'rinishi	Qanday namoyon bo'ladi	Falsafiy mohiyati	Oqibati
Tanlov mo'lligi paradoksi	Variantlar soni ortadi, qaror qabul qilish qiyinlashadi	Erkinlik miqdoriy ko'rsatkichga aylantiriladi	Qarordan qochish, qoniqmaslik hissi
Algoritmik vositachilik	Tanlov maydonini tavsiya tizimlari shakllantiradi	Majburlashning yashirin shakli yuzaga keladi	Avtonomiyaning mazmunan cheklanishi
Mas'uliyat bo'shlig'i	Avtonom tizim qarori uchun aniq javobgar topilmaydi	Javobgarlik subyektsiz qolishi mumkin	Axloqiy nazoratning zaiflashuvi
Javobgarlikni ko'chirish	Oqibat vaziyatga, tizimga yoki boshqalarga yuklanadi	Shaxs o'zini qaror muallifi deb tan olmaydi	Shaxsiy kamolotning sekinlashuvi
Anonimlik effekti	Raqamli muhitda xatti-harakat shaxssizlashadi	Axloqiy subyekt ko'rinmas bo'lib qoladi	Muloqot madaniyatining buzilishi
Qisqa muddatlilik	Qaror faqat yaqin natijaga qaratiladi	Mas'uliyatning vaqt ko'lami torayadi	Uzoq muddatli oqibatlar e'tibordan chetda qoladi

Assimetriyaning birinchi ko'rinishi psixologik emas, balki falsafiy tabiatga ega.

Erkinlik variantlar soni bilan o'lchana boshlaganda, u sifat kategoriyasidan miqdor

kategoriyasiga aylanadi. Biroq erkinlikning mohiyati variantlar sonida emas, balki insonning o'z tanlovini asoslay olish va uning ortida turish qobiliyatidadir.

Ikkinchi ko'rinish zamonaviylik uchun ayniqsa xarakterli. Algoritmik vositachilik sharoitida inson o'ziga taqdim etilgan variantlar ichidan tanlaydi, ammo bu variantlarni kim va qanday mezon asosida tanlab bergani unga noma'lum bo'ladi. Bunday holatda tanlovning shakli saqlanadi, mazmuni esa qisman boshqa subyektga o'tadi. Falsafiy jihatdan bu erkinlikning yo'qolishi emas, balki uning darajasining pasayishi sifatida baholanishi lozim.

Uchinchi ko'rinish — mas'uliyat bo'shlig'i — texnologik taraqqiyotning bevosita natijasidir. Shuni ta'kidlash lozimki, javobgarlikning taqsimlanishi uni bekor qilmaydi. "Tizim shunday qaror qildi" degan izoh axloqiy jihatdan asossizdir, chunki har qanday tizim ortida uni loyihalagan, ma'lumot bilan ta'minlagan va qo'llash haqida qaror qabul qilgan inson turadi. Shu sababli mas'uliyatni aniq belgilash zamonaviy etikaning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

To'rtinchi ko'rinish shaxs darajasida eng ko'p uchraydi. Javobgarlikni tashqi omillarga ko'chirish qisqa muddatda ruhiy yengillik keltirsa-da, uzoq muddatda shaxsning o'z hayotiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu erkinlikdan ixtiyoriy voz kechishning bir shaklidir.

4. *Mas'uliyat darajalari va ularning o'zaro bog'liqligi.* Mas'uliyat yagona va bir jinsli hodisa emas. Tadqiqot davomida uning qamrov doirasiga ko'ra to'rt darajasi ajratildi. Ushbu darajalar bir-birini istisno qilmaydi, aksincha, quyi daraja yuqorisining asosi bo'lib xizmat qiladi. Tasnif 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mas'uliyat darajalarining tasnifi

Shaxsiy mas'uliyat insonning o'z qarori, salomatligi, vaqti va rivojlanishi oldidagi javobgarligini anglatadi. U qolgan barcha darajalarning poydevori hisoblanadi, chunki o'zi oldida javobgarlikni his qilmaydigan shaxsdan boshqalar oldidagi burchni bajarishni kutish asossizdir.

Ijtimoiy mas'uliyat oila, jamoa va jamiyat oldidagi majburiyatlarni qamrab oladi. Bu darajada mas'uliyat endi shaxsiy tanlov doirasidan chiqib, boshqa insonlarning manfaatlarini bilan bog'lanadi. Kasbiy va institutsional mas'uliyat esa shaxsning ma'lum bir rolni bajarishi bilan bog'liq bo'lib, u kasb etikasi va xizmat vazifasi orqali tartibga solinadi.

To'rtinchi daraja — global va ekologik mas'uliyat — zamonaviy davrning mahsulidir. Texnologik imkoniyatlarning ortishi insonning harakatlari ta'sir doirasini vaqt va makon jihatidan keskin kengaytirdi. Bugungi qaror kelajak avlodlar hayotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq ular bu qarorda ishtirok eta olmaydi. Shu sababli mas'uliyatning vaqt ko'lamini kengaytirish zamonaviy etikaning zaruriy talabiga aylanadi.

5. *Erkinlik va mas'uliyat muvozanatining mezonlari.* Olib borilgan tahlil asosida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni baholash mezonlari ishlab chiqildi (3-jadval). Ushbu mezonlar shaxs darajasida ham, ijtimoiy institutlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin.

3-jadval

Erkinlik va mas'uliyat muvozanatining mezonlari

Mezon	Muvozanat buzilgan holat	Muvozanatli holat
Qaror mualliligi	Shaxs qarorni tashqi omil natijasi deb biladi	Shaxs o'zini qaror muallifi sifatida tan oladi
Oqibatni anglash	Faqat yaqin natija hisobga olinadi	Uzoq muddatli oqibatlar ham baholanadi
Axborot shaffofligi	Tanlov qanday shakllanganini bilmaydi	Alternativlarning manbai va mezonni ma'lum
Javobgarlik manzili	Javobgarlik aniq subyektga biriktirilmagan	Har bir bosqichda javobgar aniq belgilangan
Boshqalarga munosabat	Erkinlik boshqalarning huquqini cheklaydi	Erkinlik o'zaro hurmat doirasida amalga oshiriladi
Qadriyatga muvofiqlik	Qaror faqat foyda mezoniga tayanadi	Qaror axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtiriladi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, muvozanatning asosiy ko'rsatkichi cheklovlar soni emas, balki insonning o'z qarori bilan o'rtasidagi aloqani anglash darajasidir. Erkinlikni cheklash yo'li bilan mas'uliyatni oshirishga urinish samarasizdir, chunki majburlash sharoitida bajarilgan harakat axloqiy qiymatga ega bo'lmaydi. Mas'uliyat faqat erkin tanlov mavjud bo'lgan joydagina mazmun kasb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari erkinlikning mutlaqlashtirilishi ham xavfli ekanini ko'rsatadi. Mas'uliyatdan ajratilgan erkinlik o'zboshimchalikka aylanadi va oxir-

oqibat boshqa insonlarning erkinligini cheklaydi. Falsafiy an'anada bu holat erkinlikning o'z-o'zini inkor qilishi sifatida tavsiflanadi.

Muhokamaning yakuniy jihati ta'lim bilan bog'liq. Erkinlik va mas'uliyat muvozanati tug'ma xususiyat emas, balki shakllantiriladigan sifatdir. Ta'lim jarayonida o'quvchiga tayyor qaror taqdim etish o'rniga, unga tanlash, tanlovini asoslash va oqibatini baholash imkoniyatini berish ushbu muvozanatni tarbiyalashning eng samarali yo'lidir. Shu ma'noda mas'uliyat tarbiyasi axloqiy targ'ibot emas, balki amaliy tajriba orqali amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir.

6. *Erkinlik va mas'uliyatning ekzistensial o'lchovi.* Erkinlik va mas'uliyat muammosining yana bir muhim qirrasini uning ekzistensial o'lchovi bilan bog'liq. Ijtimoiy va huquqiy talqinlarda mas'uliyat, asosan, tashqi subyekt oldidagi javobgarlik sifatida tushuniladi: inson jamiyat, jamoa yoki qonun oldida hisob beradi. Biroq mas'uliyatning eng chuqur shakli tashqi nazoratga emas, balki insonning o'zi bilan munosabatiga asoslanadi. Bunda javobgarlik jazo qo'rquvi bilan emas, balki o'z hayotining ma'nosini anglash bilan bog'lanadi.

Ekzistensial yondashuvda inson nafaqat ayrim harakatlari uchun, balki o'zining qanday shaxs bo'lib shakllanayotgani uchun ham javobgar hisoblanadi. Har bir tanlov faqat tashqi natija bermaydi, balki tanlovchining o'zini ham o'zgartiradi. Shu ma'noda inson o'z qarorlari orqali doimiy ravishda o'zini yaratib boradi. Ushbu qarash mas'uliyatni yuk sifatida emas, balki shaxs erkinligining amaliy ifodasi sifatida ko'rish imkonini beradi.

Bunday talqin zamonaviy sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhitda inson ko'plab tayyor namunalar, xulq-atvor andozalari va muvaffaqiyat mezonlari bilan to'qnash keladi. Ularni tanqidsiz qabul qilish shaxsning o'z hayot yo'lini mustaqil belgilash imkoniyatini cheklaydi. Aksincha, tanlovni ongli ravishda amalga oshirish va uning ortida turish ekzistensial mas'uliyatning namoyon bo'lishidir.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ekzistensial mas'uliyat ijtimoiy mas'uliyatga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak. Ular bir-birini to'ldiradi: o'z oldidagi javobgarlikni his qilgan shaxsgina boshqalar oldidagi burchni rasmiy majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida bajaradi. Aynan shu bog'liqlik mas'uliyat tarbiyasining falsafiy asosini tashkil etadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot zamonaviy inson hayotida erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabat sifat jihatidan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatdi. Ushbu munosabatni an'anaviy "erkinlik yoki zaruriyat" qarama-qarshiligi doirasida tahlil qilish bugungi kunda yetarli emas.

Birinchidan, erkinlikning zamonaviy talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning hech biri o'z-o'zicha to'liq emasligi aniqlandi. Eng samarali natija kompatibilistik va relatsion yondashuvlarni birlashtirish, ya'ni insonni qaror muallifi sifatida tan olgan holda uning ijtimoiy shart-sharoitlarini ham hisobga olish orqali erishiladi.

Ikkinchidan, erkinlik va mas'uliyat bir-birini istisno qiluvchi emas, balki bir-birini taqozo etuvchi kategoriyalar ekani asoslandi. Ularni bog'lovchi bo'g'in tanlov akti bo'lib, u ong va bilim darajasi hamda qadriyatlar tizimi tomonidan shartlanadi.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyatda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi assimetriya hodisasi aniqlandi va uning olti ko'rinishi tavsiflandi. Ularning ichida algoritmik vositachilik va mas'uliyat bo'shlig'i sof zamonaviy xarakterga ega bo'lib, alohida falsafiy va huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

To'rtinchidan, mas'uliyatning to'rt darajasi — shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy-institutsional hamda global va ekologik — ajratildi. Ushbu darajalar ierarxik tarzda bog'langan bo'lib, shaxsiy mas'uliyat qolganlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, erkinlik va mas'uliyat muvozanatini baholashning olti mezonini ishlab chiqildi. Muvozanatning asosiy ko'rsatkichi cheklovlar soni emas, balki insonning o'z qarori bilan oqibat o'rtasidagi aloqani anglash darajasi ekani asoslandi.

Oltinchidan, mas'uliyatni erkinlikni cheklash yo'li bilan shakllantirib bo'lmasligi ko'rsatildi. Majburlash sharoitida bajarilgan harakat axloqiy qiymat kasb etmaydi, shu sababli mas'uliyat tarbiyasi tanlash imkoniyatini kengaytirish va uning oqibatlarini anglash ko'nikmasini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatning asosiy falsafiy vazifasi erkinlikni cheklash emas, balki uni mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishdir. Ushbu uyg'unlik shaxs kamoloti, ijtimoiy barqarorlik va texnologik taraqqiyotning insonparvarlik yo'nalishida rivojlanishining zaruriy shartidir. Tadqiqot natijalari falsafa, etika va gumanitar fanlar bo'yicha o'quv kurslarida hamda mas'uliyat tarbiyasiga oid pedagogik ishlanmalarda foydalanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1.Sapolsky R. Determined: A Science of Life Without Free Will. – New York: Penguin Press, 2023. – bet 528. (Belgilangan: erkin irodasiz hayot fani)
- 2.Mitchell K. J. Free Agents: How Evolution Gave Us Free Will. – Princeton: Princeton University Press, 2023. – bet 408. (Erkin agentlar: evolyutsiya bizga erkin irodani qanday berdi)
- 3.Caruso G. D. Rejecting Retributivism: Free Will, Punishment, and Criminal Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – bet 388. (Retributivizmni rad etish: erkin iroda, jazo va jinoiy adolat)
- 4.Dennett D. C., Caruso G. D. Just Deserts: Debating Free Will. – Cambridge: Polity Press, 2021. – bet 240. (Munosib jazo: erkin iroda haqidagi munozara)
- 5.Vallor S. The AI Mirror: How to Reclaim Our Humanity in an Age of Machine Thinking. – Oxford: Oxford University Press, 2024. – bet 288. (Sun'iy intellekt ko'zgusi: mashina tafakkuri davrida insoniylikni qaytarish)
- 6.Coeckelbergh M. AI Ethics. – Cambridge, MA: MIT Press, 2020. – bet 248. (Sun'iy intellekt etikasi)
- 7.Han B.-C. Infocracy: Digitization and the Crisis of Democracy. – Cambridge: Polity Press, 2022. – bet 100. (Infokratiya: raqamlashtirish va demokratiya inqirozi)
- 8.Sandel M. J. The Tyranny of Merit: What's Become of the Common Good? – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2020. – bet 288. (Xizmat zulmi: umumiy manfaatga nima bo'ldi?)